Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	



MAMLAKATIMIZDA OZIQ- OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Axmedova Nafisa Amriddin qizi
Oriental universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqoladamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ahamiyati, mohiyati va nazariy asoslari ochib berilgan. Unda O'zbekistonda mustaqillik yillarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgartirishlar va chora-tadbirlarni tahlil qilish asosida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, "O'ZBEKISTON-2030" Strategiyasida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, mahsulot, iste'mol, ovqatlanish, standart, me'yor, sifat. Strategiya, model.

Abstract: This article reveals the importance, essence and theoretical foundations of ensuring food safety in our country. In it, based on the analysis of socio-economic changes and measures implemented to ensure food security in Uzbekistan during the years of independence, strengthening the country's food security and ensuring the implementation of the tasks defined in the "UZBEKISTAN-2030" Strategy relevant proposals are presented.

Key words: safety, agriculture, food safety, product, consumption, nutrition, standard, norm, quality. Strategy, model.

Аннотация: В данной статье раскрываются значение, сущность и теоретические основы обеспечения продовольственной безопасности в нашей стране. В нем на основе анализа социально-экономических изменений и мер, реализованных для обеспечения продовольственной безопасности в Узбекистане за годы независимости, укрепления продовольственной безопасности страны и обеспечения реализации задач, определенных в Стратегии "УЗБЕКИСТАН-2030", представлены соответствующие предложения. представлены.

Ключевые слова: безопасность, сельское хозяйство, безопасность пищевых продуктов, продукт, потребление, питание, стандарт, норма, качество. Стратегия, модель.

KIRISH

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish barcha mamlakatlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlamogda. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir emas. Shu bois, bunday holatda oziq-ovqat sanoat korxonalariga xom-ashyo etkazib beruvchi qishloq xo'jaligini rivojlantirish, atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlash muhim sanaladi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga yetadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yosh-gacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat emaslik natijasida kelib chiqmoqda.

Shu bilan birga mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy mehanizmlarini amaliyotga joriy etish bo'yich qator normativ hujjatlar qabul qilindi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'ZBEKISTON-2030" Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosi hisoblanadi.

MUAMMONI O'RGANILGANLIK DARAJASI

Agrar munosabatlarning ilmiy-nazariy asoslarini, uni tartibga solish vositalari uzoq xorij olimlaridan J. Addison (2001) Agrar munosabatlarning ilmiy-nazariy asoslarini P. Samuelson, (1992), Agrar munosa-



batlarning tartibga solish S. Bryu, K. Makkonell (1992) va boshqalarning tadqiqotlarida muayyan darajada o'rganilgan. Ular tomonidan agrar munosabatlarning keng qamrovli konsepsiyasi shakllantirilgan.

Agrar munosabatlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni MDH olimlaridan Frolov K. V., Gordeyev A. V., Maslennikova (2011), Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar Balabanov V. S., Borisenko E. N. (2012) va boshqa olimlar ishlarida dehqon xo'jaliklarining rivojlanish tendensiyalari, evolyutsiyasi va agrar munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish muammolari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish masalalariga D. Tadjibayeva (2020), agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni I. B. Rustamova (2020), oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini B. O. Dusmatov (2022), aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash Ch. P. Xo'jageldiyev (2022), respublikaning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari S. R. Topildiyev (2023) lar o'z ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, Respublikada bugungi kunda yangi iqtisodiy siyosat O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks dasturlar va qo'llanmalar, zamonaviy veb-vositalardan innovasiya samaradorligini oshirish vositalaridan foydalanish bo'yicha iqtisodiy tajribalarini o'rganilgan.

Maqolani tayyorlash jarayonida xorijlik, rossiyalik va O'zbekistonlik olimlar hamda mutaxassislarning innovatsion rivojlanish sharoitida yangi iqtisodiy siyosat O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ikki yo'nalishda chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- qishloq aholisi tomorqa maydonlarini kengaytirish va yangilarini ajratib berish;
- qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibini qayta ko'rib chiqish.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, agrar islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida qishloq xo'jaligi ekinlari strukturasi qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish kerak bo'ldi. Bu masala hukumat tashabbusi bilan ko'rib chiqildi. Mamlakatimizda don mustaqilligini qo'lga kiritishga qaratilgan Dasturning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi katta ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etdi. G'alla mustaqilligiga erishish, aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari – go'sht, sut, tuxum va meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishning ancha ko'payganligi, va buning oqibatida, oziq-ovqatning barcha asosiy turlarini mamlakatning o'zida ishlab chiqarish amalda to'liq ta'minlandi. Tabiiy-iqlim sharoitlariga ko'ra respublikada yetishtirilishi mumkin bo'lmagan mahsulotlar bundan mustasno. Institutsional islohotlar: samarasiz shirkat xo'jaliklarining tugatilishi va fermer xo'jaliklari tashkil etilishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va sotishda xususiy sektorning rivojlanishi, qishloq xo'jaligi yer fondini qo'llab-quvvatlash va sifati yaxshilash maqsadida Melioratsiya jamg'armasi tashkil etilishi va shu kabilar ushbu jarayonda muhim rol o'ynadi.

Mamlakatimizda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida yangi bog' va uzumzorlar barpo etish borasida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2018-2022-yillar davomida qariyb 50 ming gektar maydonda yangi bog'lar, jumladan, 14 ming gektardan ortiq maydonda intensiv bog'lar, 23 ming gektarda uzumzorlar yaratildi. Intensiv bog'lar tashkil etish uchun Polsha, Serbiya va boshqa mamlakatlardan 6 milliondan ziyod ko'chat olib kelindi. 2011-yilda yaratilgan bog'larning har gektaridan 2022-yilning o'zida o'rtacha 300 sentner hosil olindi.

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining keskin oshishi tufayli ularning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori ham o'sib bordi. 2021-yilda 2008-yilga nisbatan aholi jon boshiga sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish 2,6 barobardan ziyodga, poliz mahsulotlari 2,7 barobardan ziyodga, kartoshka 2,5 barobardan ziyodga, meva 2,4 barobarga, uzum 1,7 barobarga yaqin o'sgan. Shu davrda bir kishiga to'g'ri keladigan me'yorga nisbatan esa aholi jon boshiga hisoblaganda ishlab chiqarish hajmi uzum mahsulotlari 3,1 barobardan ortiq bo'lgan. Boshqa mahsulotlar bo'yicha ham me'yordan ortiq miqdorda ishlab chiqarilgan ^[2].

Respublikada 2020–2030-yillarda aholini va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlash, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlarini hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo'jaligi obyektlarining ishonchli ishlashini ta'minlash hamda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan.



O'zbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan bo'lib, uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va soylar hamda yer osti suvlaridir. Orol dengizi havzasidagi barcha manbalarning o'rtacha ko'p yillik suv oqimi 116 mlrd kub metrni tashkil etadi, shundan 67,4 foizi Amudaryo havzasida va 32,6 foizi Sirdaryo havzasida shakllanadi. Jumladan, yer osti suvlarining umumiy zaxirasi 31,2 mlrd kub metrni tashkil etib, uning 47,2 foizi Amudaryo havzasiga, 52,8 foizi esa Sirdaryo havzasiga to'g'ri keladi.

"Amudaryo" va "Sirdaryo" havzalari suv resurslaridan kompleks foydalanish va ularni muhofaza qilish sxemalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi uchun o'rtacha ko'p yillik suv olish limiti 64 mlrd kub metrni tashkil etadi. Shu bilan birgalikda, 1980-yillarda respublikaning yillik suv iste'moli ko'p yillik limit doirasida bo'lib, so'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi, shuningdek, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolari tufayli foydalanilgan o'rtacha yillik suv miqdori 51 – 53 mlrd kub metrni, jumladan, 97,2 foizi daryo va soylardan, 1,9 foizi kollektor tarmoqlaridan, 0,9 foizi esa yer ostidan foydalanib, ajratilgan suv olish limitiga nisbatan 20 foizga qisqargan.

Respublikada sug'oriladigan yer maydoni 4,3 mln gektarni tashkil etib, jami suv resurslarining o'rtacha 90-91 foizi qishloq xo'jaligida, 4,5 foizi, kommunal-maishiy xo'jalik sohasida, 1,4 foizi sanoatda, 1,2 foizi baliqchilikda, 0,5 foizi issiqlik energetikasida, 1 foizi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalanilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, qishloq xo'jaligini suv bilan ishonchli ta'minlash, shuningdek, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida respublikada o'ziga xos suv xo'jaligi tizimi barpo qilingan.

Suv xo'jaligi tizimida 28,4 ming km irrigatsiya tizimi va ulardagi 54 432 ta har xil gidrotexnika inshootidan, shuningdek, umumiy hajmi 19,4 mlrd kub metr bo'lgan 70 ta suv ombori va sel omboridan foydalanib kelinmoqda.

Suv resurslarining nomutanosib taqsimlanishi va sug'oriladigan yerlarning murakkab relyefga ega ekanligi natijasida sug'oriladigan yerlarning 60 foiziga yaqin qismiga 1 687 ta nasos stansiya yordamida suv yetkazib berilib, ularning yillik elektr energiyasi iste'moli 8 mlrd kVt.s ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, suv iste'molchilari uyushmalari, fermer xo'jaliklari va klasterlar tomonidan jami 155,2 ming km sug'orish tarmog'i va 10 280 tadan ziyod nasos agregatlari ishlatilmoqda. Sug'orish ehtiyojlari uchun jami 12,4 mingta, jumladan, suv xo'jaligi tizimida 4 153 ta sug'orish quduqlaridan foydalanilmoqda.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun umumiy uzunligi 142,9 ming km, shundan 106,2 ming km ochiq va 36,7 ming km yopiq gorizontall kollektor-drenaj tarmog'i, shuningdek, 172 ta meliorativ nasos stansiyasi, 3 897 ta vertikal drenaj quduq ishlatilmoqda.

Shu bilan birga 2023-yil sentyabr oyida Samarqahdda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha halqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Samarqand deklarasiyasida ishtirokchi mamlakatlarning quyidagi maqsadlari qayd etiladi:

- qishloq xo'jaligini ekologik jihatdan eng xavfsiz, bioxilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydigan usulda, suv resurslaridan optimal foydalangan holda rivojlantirish;
- aholi, ayniqsa bolalar va o'smirlarning sog'lom ovqatlanishiga ko'maklashish, maktabda ovqatlanish kompleks dasturlarini joriy qilish;
- ayollarning agrooziq-ovqat tizimlari transformasiyasidagi ulushini oshirish uchun qishloq joylardagi ayollar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish;
- davlat miqyosida kichik va oilaviy xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish, tabiiy va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi sohasidagi davlat siyosati asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog'lig'ini hamda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish;
- qonunchilik hujjatlarini O'zbekiston a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlarning xalqaro standartlari, normalari va qoidalariga uyg'unlashtirish;
- O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotining raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini oshirish;
- oziq-ovqat mahsulotining muomalasini barcha bosqichlarida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligining umumiy tamoyillari xalqaro talablardan kelib chiqqan holda belgilanadi, amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtiriladi, Jahon savdo tashkilotining sanitariya va fitosanitariya choralarini qo'llash to'g'risidagi keli-shuvi qoidalari aks ettiriladi;



- oziq-ovqat sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining huquq va majburiyatlari, ular faoliyatida zarur gigienik amaliyot va zarur ishlab chiqarish amaliyotini joriy etish mexanizmlari belgilanadi;
- oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi sohasida nazoratni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar maxsus bilimlari oshiriladi, zamonaviy, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda nazorat usullarini qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil etiladi; korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlari joriy etiladi;
- oziq-ovqat tizimining investitsiyaviy jozibadorligi ortadi, xalqaro raqobatbardoshligi ta'minlanadi va respublikaning eksport salohiyati oshiriladi.

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash murakkab masala hisoblanadi. Chunki aholini oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlash darajasining pasayishiga olib keluvchi omillar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi ^[3]:

- oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi;
- aholi sonining o'sishi;
- aholi jon boshiga iste'molning o'sishi;
- turli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarning nomutanosibligi. Buning natijasida hosildorlik darajasi, ba'zi mahsulot turlari hajmi kamayishi yuz beradi;
- urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi tufayli qishloq xo'jaligida foydalaniladigan ekin maydonlari qisqarib borishi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yetarli darajada yuqori sur'atlarda o'smasligi;
- mamlakatga chetdan arzon narxlarda oziq-ovqat mahsulotlarining kiritilishi;
- ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligi o'sish sur'atlarining pasayishi;
- qishloq xo'jaligida kimyoviy o'g'it va moddalarning haddan tashqari ishlatilishi hamda irrigatsiya va melioratsiya ishlarining yetarli darajada, o'z vaqtida bajarilmasligi, agrotexnika qoidalariga yetarli darajada e'tibor berilmasligi tufayli yerlar sifatining yomonlashi, yer unumdorligining pasayishi.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2025–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va indikatorlar¹

T/p	Ko'rsatkichlar nomi	Asos (2018-y.)	2021-yil	2025-yilga maqsad	2030-yilga maqsad
1.	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tapmog'ida ish o'rinlari sonining o'sishi:	3 671 300	2%	1%	1%
2.	Qishloq xo'jaligi Oziq-ovqat sanoati	91 420	3%	4%	5%
3.	To'qimachilik canoati	140200	3%	4%	5%
4.	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining oshishi	2,3 mlrd AQSh doll.	3,5 mlrd AQSh doll.	10 mlrd AQSh doll.	20 mlrd AQSh doll.
5.	Aholi o'rtasida to'yib ovqatlanmaydiganlar ulushi	6,3%	5%	3%	0

1-jadvaldan kospinib tusibdiki, 2018-yilga nisbatan 2030-yilga borib qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tapmog'ida ish o'rinlari sonining o'sishi 1%, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat sanoati va to'qimachilik sanoati 5%, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining oshishi 20 mlrd AQSh dollariga ortadi, aholi o'rtasida to'yib ovqatlanmaydiganlar ulushini to'liq tugatishga erishish prognoz qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'ZBEKISTON–2030" Strategiyasi to'g'risida PF-158-sonli Farmonida Aholi orasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilangan. Jumladan:

- Me'yoridan ortiq tuz iste'mol qiladigan aholi ulushini 32 foizga, etarlicha jismoniy faollikka ega bo'lmagan aholini 22 foizga, ortiqcha vaznga va semizlikka ega katta yoshdagi aholini tegishincha 32 foiz va 23 foizga qadar kamaytirish.
- 5 yoshgacha bolalar orasida bo'y o'sishi kechikishi mavjud bo'lganlar, vazn og'irligi yetishmasligi mavjudlar va ortiqcha vazni mavjud ulushini o'rtacha 2 barobarga kamaytirish.

¹ O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini 2-ilova.



- Ta'lim va tibbiyot muassasalariga tarkibida transyog', tuz va shakar miqdori ko'p bo'lgan mahsulotlarni olib kirish, tayyorlash, sotilishini 100 foiz cheklash maqsadga muvofiqligi belgilangan.
- Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish.
- Bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga etkazish.
- Qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga etkazish.
- Agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish.
- Hosildorlik ko'rsatkichlarini paxta bo'yicha o'rtacha 45–50 sentnerga, g'alla bo'yicha – 80–85 sentnerga yetkazish.
- Qo'shimcha 300 ming gektar er maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo'llash orqali o'zlashtirish va mazkur erlarda ozuqabop, dorivor, moyli, dukkakli, sholi, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari ekish, intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish.
- Mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug'lik ta'minotini 50 foizga yetkazish.
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash.
- Respublika hududlarida 2,5 million tonna quvvatga ega bo'lgan 100 ta yangi agrologistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularning eksport salohiyatini 1 milliard dollarga yetkazish.
- Yer munosabatlarini isloh qilish doirasida yer maydonlari ijara huquqini garovga qo'yish mexanizmini joriy qilish.
- Ko'chatchilik xo'jaliklari reyestrini yuritish va ko'chatlarni sertifikatlash tizimini joriy qilish.
- Har bir tumanda agrar sohadagi ilm va innovasiyalar, yangicha yondashuvlar, zamonaviy agroteknika tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi markazlarni tashkil qilish.
- Dehqon va fermer xo'jaliklari hamda klasterlarga barcha subsidiyalarni yagona "Agrosubsidiya" platformasi orqali "bir qadam" tamoyili asosida taqdim etish.
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorvani sug'urta qilish tizimini isloh qilish, alohida sug'urta jamg'armasini tashkil etish va unga 100 million dollarni jalb qilish, dehqon va fermerlarga sug'urta mukofotining 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy qilish.

Chorvachilik sohasida ozuqa bazasini mustahkamlash, yaylov yerlardan unumli foydalanishni ta'minlash belgilangan.

- Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish.
- Xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingga yetkazish.
- Dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil qilish.
- "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish,
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo'lishini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining zarur hajmi yetishtirilishini ta'minlash uchun suvdan foydalanish tizimini takomillashtirish lozim. Jumladan, qo'shni davlatlar tomonidan gidroenergetika sohasida nazarda tutilgan loyihalar amalga oshirilgan va suv ta'minoti tegishli qisqargan taqdirda suv taqchiligi qoplash uchun sug'oriladigan yerlarda zamonaviy texnologiyalardan tomchilatib va yomg'ir latib sug'orishni joriy etish talab etiladi. Hosildorlik, binobarin, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning qo'shimcha hajmlaridan olinadigan foyda oshadi;



- dehqonchilik mahsulotlari hosildorligini va chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish vazifalarini hal etish uchun zamonaviy agrotexnologiyalar joriy etilishini rag'batlantirish;
- qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish va tayyorlash, taqsimlash, qayta ishlash va sotishning samarali tizimini yaratish. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydigan va oziq-ovqat mahsulotlari narxlari mavsumiy o'zgarib turishini pasaytiradigan tizimni yaratish;
- yangi va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish zarur. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashning samarali tizimini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. 2025-yilga borib O'zbekiston o'rtacha darajadan yuqori daromad olinadigan mamlakatlar guruhiga o'tishi, turmush tarzi, xulq-atvor andozalari, ovqatlanish tarkibi tegishli tarzda o'zgarishi e'tiborga olingan holda bir qancha tovarlar bo'yicha qayta ishlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari ulushi o'sishini ta'minlash zarur bo'ladi;
- ovqatlanish standartlari va me'yorlarini joriy etish (shu jumladan, mikroelementlar va zarur nutrientlar mavjud bo'lishi, zararli moddalar, turli qo'shimchalar, bo'yoqlar, ta'm beruvchilar, emulgatorlarni nazorat qilish, tayyorlash, tashish texnologiyalariga rioya qilishni nazorat qilish), shuningdek, ovqatlanish sifati ustidan nazorat qilish mexanizmini yanada rivojlantirish;
- aholining ovqatlanish modelini yaxshilash maqsadida sog'lom ovqatlanish to'g'risidagi zarur axborotni tarqatish va aholiga yetkazish lozim. Ushbu maqsadlarda tibbiyot muassasalari aholi orasida bunday axborotni tarqatishda va aholiga yetkazishda faolroq ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'ZBEKISTON – 2030" Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni,
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risidagi PQ-5009-son Qarori.
4. Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper October No 381, 2001, -P. 19.
5. Самуэльсон П. Экономика. В.2 т. – М.: МГП "АЛГОН", ВНИИСИ, 1992. 432 с.
6. Брю С., Макконнелл К. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2 т., пер. с англ. 11-го изд. Т. 1. – М.: "Республика", 1992. -с. 132-175,194-217; Т. 2. - с.156-174,293-310.
7. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – T.: "Akademiya", 2012.
8. Aliyev Ya.E. "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalari" Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali ii son. mart-aprel, 2020 198-b
9. Balabanov V.S., Borisenko E.N. Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar. – M.: Iqtisodiyot, 2012. – B. 22.
10. Frolov K.V., Gordeev A.V., Maslennikova O.A. va boshqalar. Oziq-ovqat xavfsizligi. 2-bo'lim / - M.: Bilim, 2011-101. b.
11. Topildiyev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. - Iqt. fan. dok. ... dis. - T.: "Tipograff" MCHJ. 2023.-70 b.
12. Altiyev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. – T. Fan, 2018. Monografiya -274 b.
13. Tadjibayeva D. Milliy iqtisodiyotda institutsional o'zgarishlar samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. (O'zbekiston Respublikasi agrar sohasida misolida) Iqt. fan. dok. ... dis. avtoref. - T.: O'zRIIVA, 2020. – 81 b.
14. Rustamova I.B. Agrar soxada innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy uslubiy asoslari. avt. ... i.f.d. T.: 2020. - 77 b.
15. Dusmatov B.O. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrasanoat ishlab chiqarishda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. avt. ... i.f.d. T.:2022. -53 b.
16. Xo'jageldiyev Ch.P. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirishni rag'batlantirish. avt. ... i.f.d. T.: 2022.-56 b.
17. Topildiyev S.R. XXI Asr suv muammosi: O'zbekistonda va markaziy osiyoda bartaraf etish yo'llari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2023-yil. 5-son.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.